



ARTICLE INFO

Received: 28th December 2022

Accepted: 09th January 2023

Online: 10th January 2023

KEY WORDS

Rahbarlik mahorati boshqaruv psixologiyasi, rahbar mahorati rahbar imidji, talim muassasasi, umumiy o'rta ta'lim.

KIRISH

Bugungi globalashuv davrda yetuk malakali kadrlarni tayyorlashda ijtimoiy fikrlarni o'rganish, uning siyosiy, ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy asoslarining rivojlanishi borasidagi izlanishlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat rivoji, bevosita ta'lim bilan uzviy ravishda bog'liq va ayniqsa, oliy ta'limning yetakchi o'rinda turishligidan ham shuni ko'rishimiz mumkin kadrlarning ilmiy salohiyati, ularning raqobatbardosh mutaxassis bo'la olishligidadir.¹

Mustaqil O'zbekistonning o'z ishonchli va bardavom bo'lgan yo'li, aniq maqsadi bor, ertasi bugungi kundanda farovon va nurafshondir. Barchamizga ma'lumki, so'nggi 5 yilda Prezident Sh.M.Mirziyoevning tashabbusi bilan mamlakat rivojlanishiga yo'naltirilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya, ilm-fan va sog'liqni saqlash kabi ko'plab sohalarida misilsiz ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi.²

Ta'lim sohasining asosiy vakolatlari: ta'limni boshqarish sohasidagi vaziyat va jarayonlar to'g'risida tizimli konseptual tasavvurga ega bo'lish, boshqarishda aniq uslubiy yondashuv va tamoyillarni tanlash va ulardan foydalanish qobiliyati talaba yoshlarda singdirish, ilm-fan va amaliyotning bir bo'laki sifatida ta'limni boshqarish bo'yicha bilimlarni yangilash va tizimlashtirish boshqaruv mahorati va bo'lajak rahbarlikning nazariy manbalari sirasiga kiradi va ta'lim tashkiloti uchun dolzarb bo'lgan muammolardan biri hisoblanadi³.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini

¹ Campbell R. Mc. Connell. Microeconomics. - Copyright 2015, Macmillan Publishing Company, a division of Macmillan, Inc. - P.-127.

² A. M. Shonazarov "Umumta'lim tizimi rahbarlari shaxsini ijtimoiy-psixologik kompetentlik asosida rivojlantirish yo'llari" Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS) Материалы международной конференции. Ташкент. 24 ноября 2021г 145-b

³ Oliy ta'lim to'g'risida nizom: IX.Oliy ta'lim tizimini boshqarish. 2019 yil 27 dekabr.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLAR RAHBARINING OLDIGA QOYILGAN VAZIFA VA BURCHLARI

¹Xudayberdiyeva Dildora Bahodir qizi

Toshkent viloyati Chirchiq pedagogik universiteti magistranti

²Abdujalilova Shoira Abdumajitovna

Ilmiy rahbar, Pedagogika fanlar nomzodi datsenti,

Chirchiq davlat pedagogika unversiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7519769>

ABSTRACT

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va ushbu vazifaga bevosita javobgar shaxsning umumiy imiji va pedagogik-psixologik xususiyatlari junladan boshqaruv shaxsning rahbarlik mahorati haqida tahlillar va fikr mulohazalar keltirilgan bo'lib asosian nazariy jihatlar umumiy tarzda o'rganib chiqilgan.



yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 17-fevraldagi PF-4947-son, "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2018-yil 21-sentyabrdagi PF-5544-son Farmonlari, "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 21-apreldagi PQ-2909-son, "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son, «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar talablarini amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi⁴.

Ko'plab adabiyotlarda boshqaruv va rahbar imidji haqida malumotlar va alohida tadqiqotlar keltirilgan. Jumladan tarixiy manbalarda asosiy masala sifatida bugungi kun pedagogining zamon talablariga javob berishini aniqlash, shaxsni shakllantirishda tarbiyaning maqsad va vazifalari, qoidalari, ta'lim va tarbiya metodlari o'rganilgan⁵.

Sharqning taniqli qomusiy olim va mutafakkirlarining hissalarini kattadir. Buyuk Sharq mutafakkirlari Konfusiy, AlXorazmiy, Al-Kindiy, Al-Forobiy, Al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Hayyom, Sa'diy Sheroziy, Mirzo Ulug'bek, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar birinchilardan bo'lib ta'limdagi ushbu metodlarini ilmiy asoslab berishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Boshqaruv-bu tartibga solish darajasini oshirish orqali ijtimoiy tizim faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan, faoliyatning maxsus shakli.

Boshqaruvdan ko'zlangan asosiy maqsad-bo'lg'usi rahbarlarda boshqaruvning ijtimoiy-psixologik muammolari, boshqaruvchi shaxsga oid turli ijobiy va salbiy xususiyatlarni, boshqaruvga doir ijtimoiy munosabatlarining ob'yektiv va sub'yektiv sifatida talqin etiladigan o'ziga xos qonuniyatlariga oid nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakani shakllantirishdan qaratilgan.

Boshqaruvning vazifalari-boshqaruv jarayonining ijtimoiy-psixologik jihatdan kelib chiqishi va zarurligi, boshqaruvning uslublari, boshqaruv funksiyalari va turkumlari, boshqaruvda obyekt bilan subyekt munosabatlari, boshqaruvning asosiy tamoyillari, qonunlari bo'yicha chuqur nazariy va amaliy bilimlarni umumta'lim tizimi rahbarlari shaxsiga o'rgatishdan iborat.

Boshqaruvchi mahorati va imidjini tahlil qilish jarayonidagi tadqiqotlardan xulosa qilgan holatda talimning umumiy o'rta bosqichidagi rahbarlik imidji strukturasi to'xtalishga qaror qildik. Bunga ko'ra ushbu muassasa rahbari imidji va pedagogik-psixologik kompetensiyasini shakllantirishning asosiy omillari sifatida quyidagilarni misol sifatida keltirish mumkin:

⁴ Qarang: www.gov.uz

⁵ Fotima Uralovna Jumanova "Boshqaruv ilmiga sharq mutafakkirlarining ilmiy qarashlar" ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 59-b



- 1) Kreativ fikrlay oladigan ma`nan yetuk rahbar kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish;
- 2) Ijtimoiy-psixologik kompetentlikga ega bo'lgan zamonaviy rahbar shaxsini tarkib toptirish;
- 3) Yuqori muloqot madaniyatiga va zamonaviy qiyofaga ega bo'lgan rahbar shaxsini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish;
- 4) Ruhan sog'lom, ma`nan barkamol, aqlan uyg'un kamol topgan avlodga ta'lim-tarbiya bera oladigan rahbar shaxsini rahbarlarni shaxsini takomillashtirish;
- 5) Pedagogik jamoaga zarur imkoniyatlar bazasini yarata oladigan kognitiv va tashabbuskor rahbarlarni tayyorlashga erishish.

Bu boradagi shaxsiy xususiyat va vazifalarni hal etishda milliy ta'lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni pedagogikpsixologik tomondan boshqaruvga tayyorlash, yuksak bilim-ma'rifat egalari sifatida jismoniy va ma'naviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash, ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog hodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat olib borishlari uchun mavjud imkoniyatlardan unimli foydalanish, umumta'lim tizimi boshqaruviga doir zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirish zamon talabidir⁶

NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarining boshqaruv mahorati, psixologiyasi va imidji haqida tadqiqot olib boorish jarayonida umumiy izoh va natijalar quyidagi shaklda ifodalandi:⁷

- zamonaviy rahbar avvalo xodim faoliyatini analiz qilganda asosiy diqqatini samarali mehnat boshqaruvi jarayoniga qaratadi;
- berilayotgan topshiriq yoki lavozimga aloqador majburiyatlarning bo'ysinuvchi ehtiyoji yoki qobiliyatlariga mos yoki mos emasligini hisobga oladi;
- ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun u boshqaruvning qay usullaridan foydalanishni shaxsiy prinsiplar asosida va umumiy standartlarga mos tarzda tanlaydi;
- xodimlarga psixologik ta'sir ko'rsatish va talim jarayonini samarali sifat bosqichiga ko'tarishning shaffof yechimlarini izlaydi va ijro intizomiga tartibli ravishda rioya qilishni nazoratga oladi;

Bugungi kunga kelib maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimidagi yangicha yondoshuvlar, izchil islohotlar, zamonaviy usul, uslub va vositalarni amaliyotga tadbiiq etilishidan ko'zlangan asosiy maqsad har tomonlama yetuk mutaxassis rahbar kadrlarni tayyorlash hamda ularni shaxsini milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida shakllanirishga yo'naltirildi. Mazkur jarayonning ijtimoiy-psixologik xususiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, demokratik va huquqiy davlat hamda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qodir, o'z shaxsiy pozitsiyasiga, faol ijtimoiy xarakterga, yuqori boshqaruv qobiliyatiga, kognitiv va kreativ jihatdan saviyali, har qanday vaziyatda o'z-o'zini boshqara oladigan, samimiy, boshqaruv jarayonini adolatli tashkil eta oladigan, tashabbuskor, sermulohazali hamda davlat va jamiyat manfaatlariga o'z

⁶ Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar”, 2007. – 176 b.

⁷ Karimova V.M., Hayitov O.E., Djalalova S.M. Boshqaruv psixologiyasi. “O'quv qo'llanma”. –T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2008. – 2010-211 b.



hissasini qo'sha oladigan rahbar kadrlarni zamonaviy usul va vositalar yordamida tayyorlash hamda ularni zahirasini yaratishga qaratilgan

XULOSA VA MULOHAZALAR

Yuqoridagi malumotlar, tadqiqotlar va tahlillar natijasiga ko'ra ushbu mavzu ya'ni maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqaruvchi shaxs imiji boshqaruv shaxs rahbarlik mahoratiga alohida to'xtaladigan bo'lsak ushbu mavzuning dozlarblik darajasi yuqori ekanligi va hozirgi talim tizimi uchun muhim jihat ekanligini bilamiz. Shu o'rinda rahbar mahorati uning shaxsiyati va pedagogik boshqaruv uslubiyoti va ushbu omillarga asoslangan kompetensiyasini shakllantirishda zamonaviy talim va ilm-fanning innovatsion yutuqlaridan boxabar bo'lish, kreativ fiklash qobiliyatini o'zida singdirish alohida ahamiyatga egadir.

References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T.: O'zbekiston, 2017.- 11 b.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun.- Toshkent: "Fan va texnologiyalar", 2017.-176 b.
3. Karimova V.M., Hayitov O.E., Djalalova S.M. Boshqaruv psixologiyasi. "O'quv qo'llanma". -T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2018.-2010-211 b.
4. Campbell R. Mc. Connell. Microeconomics.-Copyright 2015, Macmillan Publishing Company, a division of Macmillan, Inc.-P.-127.
5. Fotima Uralovna Jumanova "Boshqaruv ilmiga sharq mutafakkirlarining ilmiy qarashlar" Academic Research in Educational sciences volume 2 | issue 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 59-b
6. A. M. Shonazarov "Umumta'lim tizimi rahbarlari shaxsini ijtimoiy-psixologik kompetentlik asosida rivojlantirish yo'llari" Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS) Материалы международной конференции. Ташкент. 24 ноября 2021г 145-b
7. google.com,
1. researchgati.com